

**ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA PEYZAJ TASVIRI***Ravshonbekova Gulmira**Abu Rayhon Beruniy nomidagi**UrDU 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdulla Oripov she'riyatidagi peyzaj tasvirlari tahlil etiladi. Tabiat manzaralari shoirning poetik dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, milliylik va falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda ochib beriladi.

**Kalit so'zlar.** Abdulla Oripov, peyzaj, tabiat tasviri, she'riyat, ruhiyat, milliylik, falsafa

**Kirish.** Adabiyotda peyzaj tasviri shunchaki tabiat manzarasini berish uchun emas, balki ijodkorning hissiy kechinmalarini, jamiyatga munosabatini ifodalash vositasi ham hisoblanadi. Ozod Sharafiddinov "Adabiyotda peyzaj tasviri san'atkor qalbining tabiatga munosabati, Vatanga bo'lgan muhabbatining ko'zgusidur. Ayniqsa, lirk poeziyada bu jihat kuchli bo'ladi.", deya fikr bildiradi. Abdulla Oripov – o'zbek adabiyotining zabardast vakili sifatida peyzaj vositasidan mahorat bilan foydalangan shoirlardan biridir. U tabiatni milliy ruh, vatanparvarlik, hayot falsafasi bilan uyg'un holda tasvirlaydi. Oripovning peyzajli she'rlari tashqi go'zallikni emas, balki ichki kechinmalar, ruhiy holat va tarixiy xotiralarni tasvirlaydi. Shoirning lirkasida tabiat voqeligi orqali insoniy fazilatlar, jamiyatdagi muammolar va umumbashariy qadriyatlar aks ettiriladi.<sup>1</sup>

Shoir ijodiga nazar tashlasak, tabiatga oshuftalik, tabiat bag'rida voyaga yetgan inson ruhiyati va albatta xayoliy mavjlanishlarga guvoh bo'lamiz. Shoirning she'rlarida tabiat lirkasi shu qadar jonli ifoda etiladiki, o'quvchi o'zini shu muhitda o'sha manzarada yashayotgandek his qiladi:

Eh, siz tog'lar naqadar ko'rkar,  
Sizga berar ilk nurin quyosh.  
Par bulutlar marvarid qorlar,  
Yuksak cho'qqi uzra qo'ygan bosh.<sup>2</sup>

Yuqoridagi misralarda aks etgan peyzaj (tabiat tasviri) xuddi rassom chizgan suratdek o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. 3-misradagi qorga berilgan o'xshatish ya'ni marvarid so'zi qorning xuddi marvarid kabi tovlanishini sezish mumkin. Nafaqat o'xshatish balki tasvirlash mahoratiga e'tibor qaratadigan bo'lsak tog'larning yuksakligi tufayli bulutlarning tog'lar yelkasiga bosh qo'yishi hamda

<sup>1</sup> Quronboyeva, M. "Oripov lirkasi va tabiat obrazlari". // Adabiyot va san'at, 2021, №3.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar, Birinchi jild, 16-bet

quyoshning ilk nuri ham unga talpinishini ko‘rish mumkin . Shu she’rning oxirida shunday tugallanma keladi:

Eh, siz tog‘lar, dilrabo tog‘lar,  
Yosh qalbimni maftun etgansiz.  
Yoshlik, baxtni kuylagin, deya,  
Ijodimga ilhom tutgansiz.

Ushbu she’rga “1958” deb sana qo‘yilgan. Qolaversa anglash mumkinki, ijodining boshida shoir tabiat manzaralarini ijtimoiy motivlarsiz – nekbin tarzda tasvirlagan.

Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” she’ridagi asosiy obraz – bu shamol. Shamolning esishi shoirning lirik qahramoniga o‘zgacha ruhiy kayfiyat bag‘ishlaydi. Shamoldan fikr va his-tuyg‘ular oqimi maydonga keladi. Shoir o‘zini turli makon va holatlarda kuzatadi.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,  
Ulardan esdilar turfa xil nafas.

Ushbu misralarda shamolni ramz sifatida ijtimoiy talqin qilish o‘rinli bo‘ladi. Turli holat, vaziyat, ko‘rsatma, o‘zgarish, har xil qayg‘u-g‘am va shodlik – barcha-barchasi “shamol” metaforasi vositasida ifoda qilinadi.

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,  
Shamollar goh quyun, gohida dovul.  
Ular goh oshkora, goho ro‘yoda  
Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul.  
Lekin sen bo‘limagin bog‘lar zavoli,  
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Shamol goh quyun, goh dovuldek shiddatli, ba’zida oshkora, ba’zan yashirin esadi. Shamol tufayli bog‘lar barbod bo‘lishi, bo‘stonlar zavolga yuz tutishi mumkin. Hatto inson umr yo‘llarida noo‘rin paydo bo‘lgan “shamol” – tuhmat yo bo‘hton – uning hayotini izdan chiqaradi. Shoir shamolga har band oxirida: “O, yurtim shamoli, yurtim shamoli”, – deb xitob qilar ekan, fikr yo‘nalishini “qayg‘ulardan xoli” saodat va bunyodkorlik yo‘llariga boshlaydi. Ushbu she’rdan shuni anglashimiz mumkinki, ijodkor tabiat tasviri orqali o‘z ichki-tuyg‘ularini ham bayon etib ketmoqda. G‘afur G‘ulom ham bu mavzuda shunday fikr bildiradi: “Tabiat tasviri - bu adib qalbining nidosidir. U tabiatni tasvirlar ekan, asosan o‘z ichki olamini, ruhiy holatini ifoda etadi”.

Ijodkorning “Birinchi muhabbatim” she’ri ham peyzaj tasviri bilan boshlanadi: Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda,

Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,  
Ruhimda bir ma’yuslik, sokinlik uyg‘otganda,  
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.  
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

She'rda visolga erishmagan oshiq nolasi, g'aflatda qolib muhabbat tuyg'usiga beparvo bo'lgan lirik qahramonning ichki dard va kechinmalari o'z aksini topgan. Bu kayfiyat xayolga tolish, eslash uslubida ifodalangan. Osmondag'i oy, charaqlab chiqqan yulduz ma'yus tortgan lirik qahramonga birinchi muhabbatini eslatadi.

Shoir ongiga tabiat tasvirining eng serjilo misralari quyilib kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi .Quyidagi she'rni fikrimiz isboti sifatida keltirsak :

Kapalakning uchishin uzoq,  
Kuzatdim ham yurdim ortidan.  
Qarshimizda g'unchalar porloq,  
Miltir shudring chaman sathidan.  
Allaqayda kezib tinimsiz  
Yig'dik rosa zavq atirlarin.  
So'ngra baham ko'rdik ikkimiz,  
Menga tegdi shu satrlarim.

Yuqoridagi "Kapalak va men" she'rda (Birinchi jild, 17-bet) shoir bir she'rning yozilishidagi holatni ifodalagan deya ayta olamiz. Bunda shoir uchun kapalak ilhom bo'lsa uning ketida shoir zavq ila go'zallik izlamoqda va shu asnoda she'r dunyoga keldi. Naqadar ajoyib tarzda ifodalash uslubi shoirning yana bir bor mahorat ustasi ekanligidan dalolat

beradi. Sirdan qaraganda oddiydek tuyulgan she'r dan quyidagi xuloslar chiqarish mumkin: 1. *Kapalak – o'tkinchi umr ramzi*. 2. *Kapalak – go'zal olam – go'zal umrni qadrlash ramzi*. 3. *Shunday manzaralar ta'siridagi hukm – shoirlikni tanlash*

Abdulla Oripov ijodida peyzaj tasviri shoirning ruhiy, milliy va falsafiy kechinmalarini ifoda etuvchi kuchli vositadir. U tabiat obrazlari orqali inson hayoti, Vatan taqdiri, jamiyatdagi muammolar va umidlarni aks ettiradi. Uning she'rlerida peyzaj tasviri bir vaqtning o'zida ham badiiy bezak, ham chuqur mazmun yuklaydigan unsurdur. Shoir tabiat manzaralari orqali o'z davrining ruhi, milliy tafakkuri va ma'naviy kechinmalarini badiiy tarzda yoritadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar, Birinchi jild, 16-bet
2. Mamarasulov E. O'zbek poeziyasi va obrazlar dunyosi. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Oripov A. She'rler. — Toshkent: "Sharq", 2000.
4. Quronboyeva, M. "Oripov lirkasi va tabiat obrazlari". // Adabiyot va san'at, 2021, №3.
5. Yo'ldoshev S. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2018.
6. Raufxon R. Adabiy tahlil nazariyasi. — Toshkent: Yozuvchi, 2020.
7. <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/download/791/855/2534>